XALQ DEPUTATLARI MIRZAOBOD TUMANI KENGASHI
Q A R O R I

2023 - yil 29 - dekabr VI-78-187-9-125-K/23 Mirzaobod tuman hokimligi

Tumanning 2024-yilgi tuman mahalliy byudjetini tasdiqlash hamda daromadlar va xarajatlarning prognoz ko‘rsatgichlarini belgilash to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrdagi “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-son Qonuni hamda Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi “2024-yilgi viloyat mahalliy byudjetini tasdiqlash hamda tuman va shaharlar mahalliy byudjeti daromadlari va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlarini belgilash to‘g‘risida”gi VI-60-194-9-0-K/23 -sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida va Sirdaryo viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi 2023-yil 27-dekabrdagi 02/38/1025-sonli xatiga asosan O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 99-moddasi, davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6,24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari Mirzaobod tumani Kengashi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrdagi “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-son Qonuni ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. Mirzaobod tumani mahalliy byudjetining 2024-yil uchun daromadlari **26 574 582.0** ming so‘m, xarajatlari **71 013 459.0** ming so‘m prognoz qilinganligi hamda mahalliy byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar **44 438 877.0** ming so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2024-yil uchun Mirzaobod tumanni rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatlichlari prognozi **1-ilovaga;**

2024-yil uchun Mirzaobod tumani mahalliy byudjeti daromadlari prognozi **2-ilovaga;**

2024-yil uchun viloyat byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdori **3-ilovaga;**

2024-yil uchun Mirzaobod tumani byudjetidan hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari **4-ilovaga;**

2024-yil uchun tuman byudjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari **5-ilovaga;**

2024-yil uchun tuman maxalliy byudjetlarining daromadlari va xarajatlari prognozlari **6-ilovaga;**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi PF-6121-sonli Farmoni 1-bandida belgilangan vakolatlar doirasida qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun mahallalar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab, yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ining mutloq miqdorida bazaviy soliq stavkasi **7-ilovaga;**

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlari **8-ilovaga;**

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo‘yicha belgilangan minimal miqdorga kiritilayotgan kamaytiruvchi koeffitsientlari **9-ilovaga;**

2024-yil uchun mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalari **10-ilovaga;**

2024-yil uchun avtotransport yig‘imlarinnng stavkalari **11-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. 2024-yil uchun Mirzaobod tumani byudjeti zahira jamg‘armasi hajmlari **595 244**,0 ming so‘m miqdorida belgilansin.

5. 2024-yil uchun viloyatning Mirzaobod tumani byudjeti shaxsiy g‘azna hisob varaqlarida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **510 176** ming so‘mga belgilansin.

2024 yil har chorak davomida “e-ijro” auksionidan tushgan mablag‘larni “Davlat va jamiyat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarining olib qo‘yilishi munosabati bilan jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zaralarni qoplash bo‘yicha hududiy jamg‘arma”ga o‘tkazib borish tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi tomonidan ta'minlansin.

6. O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2024-yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy byudjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy byudjet xarajatlarini hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2024-yilda quyidagi soliq turlari:

a) Mirzaobod tumani byudjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stantsiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

yuridik shaxslar yer solig‘i;

korxonalar aylanmasidan soliq;

ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig‘imlar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig‘imlardan, g‘ildirakli transport vositalari, o‘ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig‘imidan, shuningdek avtotransport vositalari oynalarining tusini o‘zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to‘lovdan tashqari);

davlat aktivlarini ijaraga berishdan olingan daromadlar.

b) viloyatning viloyat mahalliy byudjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i;

elektr stantsiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

qonunchilikda belgilangan miqdorlardagi davlat bojlari (patent bojlaridan va litsenziyalar berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga undiriladigan jarimalar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;

Davlat mulkini xususiylashtirishdan tushumlar;

mobil aloqa xizmatlari, tamaki va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aktsiz solig‘i bo’yicha, tabiiy gaz uchun qat’iy belgilangan stavkadagi aktsiz solig‘i, neft mahsulotlari uchun aktsiz solig‘ini (benzin, dizel, suyultirilgan gaz, motor moyi) tushumlar tegishlicha 2023-yilning 1-iyul holatiga ko‘ra Sirdaryo viloyati aholisi sonining respublika aholisi sonidagi ulushiga muvofiq.

v) viloyat byudjeti hamda Mirzaobod tumani byudjeti o‘rtasida taqsimlanadi:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish ko‘lamini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 25-oktyabrdagi PQ-409-son qaroriga asosan

a) “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida moliyalashtiriladigan tadbirlar jamoatchilik fikri asosida “Ochiq byudjet” axborot portali orqali ovoz berish yo‘li bilan aniqlanadi.

Bunda, aholi tomonidan amalga oshirilishi taklif etilayotgan tadbirlar har bir mahalla bo‘yicha bitta loyihalar paketi shaklida ovozga qo‘yilishi;

b) Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Tuman shahar byudjetlarida shakllangan qo‘shimcha mablag‘larning

30 foizi tuman (shahar)larda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun Fuqarolar tashabbusi jamg‘armalariga mavjud aholi soni va mahallalar sonidan kelib chiqib, teng ulushlarda yo‘naltirilishi;

v) tashabbusli byudjetlashtirish jarayonlari uchun tuman shaxar byudjetlarining
5 foizi miqdorida, biroq kamida 6 milliard so‘m mablag‘ rejalashtirilishi belgilanganligi; (Mirzaobod tumaniga 2024 yil uchun 10 893 862,0 ming so’m)

g) “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini jamoatchilik fikri asosida tashabbusli byudjetlashtirish jarayonlari orqali amalga oshirilishining yangi tartibi ishlab chiqilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

8. Mirzaobod tumani hokimining birinchi o‘rinbosari (B.Xatamov), Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (I.Sattarov), Davlat soliq inspeksiyasi v.v.b (N.Shaydullaev) va mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli byudjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy byudjeti prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;.

byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy byudjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

9. Mirzaobod tumani Davlat soliq inspeksiyasi (N.Shaydullaev) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlililar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l

qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

10. Mirzaobod tumani hokimining birinchi o‘rinbosari (B.Xatamov), Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (I.Sattarov):

Mirzaobod tumani byudjeti tasdiqlangan xarajatlarining (zaxira jamg‘armasi mablag‘larisiz) 5 foiziga teng miqdordagi mablag‘lar jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga hamda mahalliy byudjetlarda shakllangan qo‘shimcha manbalarning kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, xalq deputatlari Mirzaobod tumani Kengashi, Yoshlar ishlar agentligi tuman bo‘limi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga masul etib belgilansin;

mahalliy byudjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruktsiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan obyektlar ro‘yhati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10-sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

11. Mazkur qaror rasmiy manbalarda hamda Mirzaobod tumani hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

12. Ushbu qaror ijrosini tashkillashtirish tuman hokimining birinchi

o‘rinbosari B.Xatamov zimmasiga yuklatilsin.

13. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.To‘rayev) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi o'rinbosari **H.Amanbayeva**

Xalq deputatlari Mirzaobod tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-78-187-9-125-K/23-son qaroriga
1-ilova

Mirzaobod tumanni rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatlichlari prognozi

ming so`m

№	Ko'rsatlichlar	2024-yil uchun prognoz
1	Sanoat mahsulotlarining o‘sish sur'ati, foizda	104,5
2	Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarida ishlab chiqarishning o‘sish sur'ati, foizda	103,6
3	Qurilish ishlari o‘sish surati, foizda	107,5
4	Bozor xizmatlari o‘sish sur'ati, foizda	117,8
5	savdo, yashash va ovqatlanish xizmati o‘sish sur'ati, foizda	114,5

Xalq deputatlari Mirzaobod tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-78-187-9-125-K/23-son qaroriga
2-ilova

Tuman mahalliy byudjeti daromadlari prognoz ko‘rsatkichlari

Daromad turlari		**Summa ming so‘m**
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig’i	8 361 982
2	Aylanmadan soliq	4 655 863
3	Tadbirkorlik faoliyati bilan shug’ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat’iy belgilangan daromad solig’i	478 543
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig’i	6 013 813
5	Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (noruda materiallari)	-
6	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	3 014 286
7	Ijara to'lovlari	60 618
8	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	346 583
9	Yuridik shaxslar yer solig’i	1 080 036
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	2 562 858
JAMI		**26 574 582**
	Jami transfertlar miqdori	**44 438 877**
	Shundan Mobil aloqaga aksiz solig‘i, alkogolga aksiz solig‘i (shu jumladan pivo), tamaki mahsulotlari tushumlaridan tegishli ravishda o‘tkazib beriladigan daromadlar	**13 656 810**
1	Alkogolga aksiz solig‘i (shu jumladan pivo)	5 919 780
2	Mobil aloqaga aksiz solig‘i	2 384 500
3	Tamaki mahsulotlari	5 352 530
JAMI DAROMAD		**71 013 459**

Xalq deputatlari Mirzaobod tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-78-187-9-125-K/23-son qaroriga
3-ilova

Tuman mahalliy byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari

ming so`m

Shahar va tumanlar	**Tartibga soluvchi transfert miqdori**	Shundan aksiz solig‘i, tushumlaridan tegishli ravishda o‘tkazib beriladigan daromadlar
JAMI	**44 438 877,0**	13 656 810,0
Mirzaobod tumani	44 438 877,0	13 656 810,0

Xalq deputatlari Mirzaobod tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-78-187-9-125-K/23-son qaroriga
4-ilova

Tuman mahalliy byudjeti mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	Miqdori
Xarajatlar miqdori,Jami		**71 013 459,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**67 674 031,0**
	Davlat tibbiy sug‘urta jamg‘armasiga transfertlar	**0,0**
	Zahira jamg‘armasi	**595 244,0**
	"Mahalla byudjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	**622 636,0**
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	**10 893 862,0**
	"Mening yo'lim" loyixasi doirasida ichki yo‘llarni ta'mirlash xarajatlari	**4 000 000,0**
1	**Maktabgacha va maktab ta`limi bo‘limi**	**18 380 205,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	18 380 205,0
2	**Tibbiyot birlashmasi (Davlat sanitariya epidemiologiya osoishtalik markazi)**	**2 335 861,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 335 861,0
3	**Madaniyat bo‘limi**	**3 521 276,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 521 276,0
	Saroylar va madaniyat uylari, klublar va klub tipidpgi muassasalar	887 851,0
	Boshqa madaniy-ma'rifiy muassasalar va tadbirlar	105 186,0
	Madaniyat bo‘limi apparat	145 159,0
	Bolalar musiqa va san'at maktabi	2 383 080,0
4	**Yoshlar siyosati va sport bo`limi**	**5 874 532,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	5 874 532,0
	Sport maktabini saqlash xarajatlari	3 825 407,0
	Yoshlar ishlar agentligini saqlash xarajatlari	2 049 125,0
5	**Tuman irrigatsiya bo‘limi**	**1 854 017,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 854 017,0

6	**Iqtisodiyot va Moliya bo‘limi**	**2 037 094,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 037 094,0
7	**Tuman veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi**	**1 209 239,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 209 239,0
8	**Kambag`allikni qisqartirish va Bandlikka ko`maklashish bo‘limi**	**3 271 318,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 271 318,0
	Kambag`allikni qisqartirish va Bandlikka ko`maklashish bo‘limini saqlash xarajatlari	2 045 686,0
	Oila va xotin qizlar bo`limini saqlash xarajatlari	1 225 632,0
9	**Tuman hokimligi**	**17 394 622,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	17 394 622,0
	Tuman hokimligini saqlash xarajatlari	2 456 222,0
	Maxallabay xokim yordamchilari	1 883 248,0
	"Mahalla byudjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	622 636,0
	Xalq deputatlari Kengashi kotibiyatini saqlash xarajatlari	258 952,0
	Tuman Xalq qabulxonasini saqlash xarajatlari	111 474,0
	Zahira jamg‘armasi	595 244,0
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	10 893 862,0
	Axborot kutubxona markazi	488 629,0
	Ijtimoiy ko'nikma markazlari	65 265,0
	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tab bo'lgan fuqarolarga "dastlabki ijtimoiy moddiy yordam paketi"	19 090,0
10	**Davlat Soliq inspeksiyasini saqlash xarajatlari**	**3 339 428,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 339 428,0
11	**Obodonlashtirish bo`limini saqlash xarajatlari**	**11 795 867,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	11 795 867,0
	Obodonlashtirish bo`limini saqlash xarajatlari	7 795 867,0
	"Mening yo'lim" loyixasi doirasida ichki yo‘llarni ta'mirlash xarajatlari	4 000 000,0

Xalq deputatlari Mirzaobod tuman Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-78-187-9-125-K/23-son qaroriga
5-ilova

Tuman budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me'yorlari

T/R	**Shaxar va tumanlar nomi**	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Jismoniy shaxslarning mulklarni ijaraga berishidan olinadigan yillik daromadlari bo‘yicha deklaratsiyaga asosan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qar'idan foydalanganlik uchun soliq, bunda sement xom ashyosi va sement ishlab chiqarishda foydalaniladigan ohaktosh mustasno	Ijara to‘lovlari	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bunda elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno	Aylanmadan olinadigan soliq	Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i
1	Mirzaobod tumani	100	100	100	100	100	100	100	10	10	20

Xalq deputatlari Mirzaobod tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-78-187-9-125-K/23-son qaroriga
6-ilova

2024 yil uchun tuman maxalliy budjetlarining daromadlari va xarajatlari prognozlari

ming so`mda

Hudud nomi	**Daromad***	**Xarajat**
JAMI	**26 574 582,0**	**71 013 459,0**
Mirzaobod tumani	26 574 582,0	71 013 459,0

* Mobil aloqa xizmati va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i tushumlaridan ajaratiladigan mablag‘larni inobatga olgan holda

Xalq deputatlari Mirzaobod tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-78-187-9-125-K/23-son qaroriga
7-ilova

Qishloq xo’jaligi uchun mo’ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo’yicha 1 gektar uchun mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

ming sumda

T/r	MFY lar nomi	Koeffitsient (0,7 dan 3,0 gacha)	yer solig‘i stavkasi 2024 yil uchun (1 ga uchun)
1	Baxoriston MFY	0,70	22 680,0
2	Bogiston MFY	1,00	32 400,0
3	Dexkonobod MFY	0,80	25 920,0
4	Dung arik MFY	0,80	25 920,0
5	Yuldoshobod MFY	0,70	22 680,0
6	M.Ulugbek MFY	1,00	32 400,0
7	Mirzachul MFY	0,90	29 160,0
8	Navbaxor MFY	0,70	22 680,0
9	Navruz MFY	1,00	32 400,0
10	Nurafshon MFY	0,90	29 160,0
11	Oydin MFY	0,80	25 920,0
12	Okoltin MFY	0,70	22 680,0
13	T.Axmedov MFY	0,80	25 920,0
14	Tinchlik MFY	1,00	32 400,0
15	Toshkent MFY	1,00	32 400,0
16	Xakikat MFY	0,80	25 920,0
17	Yangi Uzbekiston MFY	0,80	25 920,0
18	Yangi xayot MFY	0,90	29 160,0

Xalq deputatlari Mirzaobod tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-78-187-9-125-K/23-son qaroriga
8-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

so`mda

T/r	Hudud nomi	Koeffitsient (0,7 dan 3 gacha)	yer solig‘i stavkasi 2024 yil uchun
1	Baxoriston MFY	0,70	141,7
2	Bogiston MFY	1,00	202,4
3	Dexkonobod MFY	0,80	161,9
4	Dung arik MFY	0,80	161,9
5	Yuldoshobod MFY	0,70	141,7
6	M.Ulugbek MFY	1,00	202,4
7	Mirzachul MFY	0,90	182,2
8	Navbaxor MFY	0,70	141,7
9	Navruz MFY	1,00	202,4
10	Nurafshon MFY	0,90	182,2
11	Oydin MFY	0,80	161,9
12	Okoltin MFY	0,70	141,7
13	T.Axmedov MFY	0,80	161,9
14	Tinchlik MFY	1,00	202,4
15	Toshkent MFY	1,00	202,4
16	Xakikat MFY	0,80	161,9
17	Yangi Uzbekiston MFY	0,80	161,9
18	Yangi xayot MFY	0,90	182,2

Xalq deputatlari Mirzaobod tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-78-187-9-125-K/23-son qaroriga
9-ilova

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo‘yicha belgilangan minimal miqdorga kiritilayotgan kamaytiruvchi koeffitsientlar

so`mda

Hudud nomi	**Koeffitsient (0 dan 0,5 gacha)**	**Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasi 2024 yil uchun (so‘m)**
Mirzaobod tumani	0,50	600 000,0

Xalq deputatlari Mirzaobod tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-78-187-9-125-K/23-son qaroriga
10-ilova

2024 yil uchun mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalari

№	Ijaraga beriladigan mol-mulk turi	Belgilangan stavka miqdorini tavsiflovchi ko‘rsatkich	Oylik ijara stavkalarining eng kam miqdorlari, so‘mda	
			Guliston shahri	boshqa aholi punktlari
1.	**Uy-joylar:**			
	turar joy	umumiy maydonning 1 kv.metri uchun	12 000	5 000
	noturar joy		23 500	10 000
2.	**Avtomobil transporti:**			
	yengil avtomobil (yo‘lovchilar, bagaj tashishga mo‘ljallangan hamda haydovchi o‘rnini hisoblamaganda, o‘rindiqlari soni 8 tadan ko‘p bo‘lmagan avtotransport vositasi)	1 ta avtotransport vositasi uchun	780 000	
	mikroavtobuslar, avtobuslar va yuk avtomobillar		1 550 000	

Izoh: Mazkur stavkalar jismoniy shaxslarning mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlariga soliq solish maqsadida qo‘llaniladi

Xalq deputatlari Mirzaobod tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-78-187-9-125-K/23-son qaroriga
11-ilova

2024 yil uchun avtotransport yig‘imlarinnng stavkalari

T/p		Yig‘imlar stavkalari
I	**Chet davlatlar avtotransport vositalarining O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig‘imlar**	**AQSh dollarida**
1	Chet davlatlar yuk avtotransport vositalarining O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig‘im (bundan 2-7 bandlarda ko‘rsatilgan davlatlar mustasno)	400
2	Tojikiston Respublikasi yuk avtotransport vositalarini O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va tranzit harakatlanganligi uchun yig‘imlar:	
	10 tonnagacha	100
	10 tonnadan 20 tonnagacha	150
	20 tonnadan yuqori	200
3	Qozog‘iston Respublikasi yuk avtotransport vositalarini O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va tranzit harakatlanganligi uchun yig‘im	300
4	Qirg‘iziston Respublikasi yuk avtotransport vositalarini O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va tranzit harakatlanganligi uchun yig‘im	300
5	Turkmaniston Respublikasi yuk avtotransport vositalarini O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va tranzit harakatlanganligi uchun yig‘imlar:	
	10 tonnagacha	50
	10 tonnadan 20 tonnagacha	100
	20 tonnadan yuqori	150

II	**Avtotransport vositalarini sotib olganlik va (yoki) O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig‘im**	
1	Yangi hamda foydalanishda bo‘lgan avtotransport vositalari bo‘yicha	xarid qilish narxining 1 foizi

Izoh:

1. O‘zbekiston Respublikasi hududi bo‘ylab xorijiy davlatlarning og‘ir yuk tashuvchi va yirik gabaritli transport vositalari o‘tganligi uchun mazkur ilovada nazarda tutilgan stavkalar bo‘yicha yig‘im to‘lanishi bilan bir qatorda qo‘shimcha ravishda qonunchilikda belgilangan miqdorlarda to‘lov undiriladi.

2. O‘zbekiston Respublikasiga uchinchi mamlakatlardan yuklar olib o‘tishda va O‘zbekiston Respublikasi hududidan yuklarni olib chiqishda Turkmaniston Respublikasi yuk avtotransport vositalaridan qo‘shimcha ravishda 175 AQSh dollari miqdorida yig‘im undiriladi

3. Gumanitar yuklarni olib o‘tishda avtotransport vositalarining olib kirilishi va tranzitida undiriladigan yig‘imlar stavkasiga nisbatan 0,5 kamaytiruvchi koeffitsient qo‘llaniladi.

4. Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.